

B.SH.MUSAYEV, S.K.BOYJIGITOV



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI



"MARKETING" KAFEDRASI

B.SH.MUSAYEV, S.K.BOYJIGITOV



**FANIDAN AMALIY DARS MASHG'ULOTLARI UCHUN
USLUBIY QO'LLANMA**

5230400-“Marketing (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)” ta'lif
yo'nalishi talabalari uchun

SAMARQAND – 2021

УЎК: 339.138 (075.8)

Musayev B.Sh., Boyjigitov S.K. Internet marketing. Uslubiy qo'llanma. – Samarqand. SamISI matbaa bo'limi. 2021. - 88 bet.

КБК: 65.290-2

Təqrizchilar:

**Z.I.Usmanova – “Marketing” kafedrasi dotsenti v.b., i.f.f.d.
(PhD).**

**I.X.Nasimov – SamDU “Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrasi
dotsenti, i.f.f.d. (PhD).**

Ushbu amaliy mashgu'lotlar uchun uslubiy qo'llanma Samarqand iqtisodiyot va servis institutining “Marketing” kafedrasida ishlab chiqildi. Mazkur uslubiy qo'llanma 5230400-Marketing (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lif yo'nalishi talabalariga uchun mo'ljallangan bo'lib, undan talabalar amaliy mashg'ulot darslarida va fanni mustaqil o'zlashtirishda keng foydalanadi.

Uslubiy qo'llanma Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Marketing” kafedrasining 2020 yil 29 avgustdagagi 1-son yig'ilishida hamda o'quv-uslubiy Kengashining 2021 yil 19 fevraldagagi 7-son majlislarida muhokama qilinib, o'quv jarayonida foydalanishga va chop etishga tavsiya etilgan.

KIRISH

Uslubiy qo'llanma – Samarqand iqtisodiyot va servis institutida 3230-100-“Marketing (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)” bakalavriat ta'lif yo'nalishining o'quv rejasida o'z aksini topgan.

Uslubiy qo'llanmaning asosiy maqsadi – avvalombor fanning o'qituvchisi, xuddi shuningdek talaba uchun, fanni har tomonlama sermazmun, chuqur nazariy, uslubiy va amaliy tarzda yetkazish (talaba uchun - o'zlashtirish va malakasini oshirish) uchun yagona o'quv-uslubiy va axborot-resurs manbaini yaratish hisoblanadi.

Uslubiy qo'llanma Samarqand iqtisodiyot va servis instituti bakalavriat ta'lif yo'nalishlari uchun mo'ljallangan bo'lib, u jumladan quyidagi tarkibiy tuzilishga ega:

- fanning me'yoriy-uslubiy ta'minoti;
- fanning mazmuni va axborot-resurs ta'minoti;
- fanni o'qitishning interaktiv texnologiyalari;
- talabalarning bilimini baholash uslubiyoti;
- qo'shimcha elektron ta'lif resurslarini o'z ichiga olgan.

Ilg'or xorijiy tajriba bilan uzviylik.

Mazkur imajmua ilg'or xorijiy tajribani keng o'tganish, umumlashtirish va undan ta'lif va tadqiqotlar jarayonida samarali foydalanish mahsulidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli Farmonida “...quyidagilar oliy ta'lif tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari hisoblanadi: mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida rivojlantirish, oliy ta'lif bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun shart-sharoit yaratish, sohada sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlash hamda oliy ta'lif bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, ta'lif jarayoniga raqamli texnologiyalar va zamonaliv usullarni joyiy etish, oliy ta'lif muassasalarini tizimli rivojlantirish va boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, oliy ta'lif tizimining investitsiyalini jozibadorligini.

No. 59905

oshirish, xalqaro miqyosda tanilishi va raqobatbardoshligini ta'minlash, ilg'or xorijiy tajribalar asosida oliv ta'lif muassasalariga yuqori malakali pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini takomillashtirib borish...”¹ deb alohida ta'kidlangan.

Ushbu qarorda belgilangan vazifalarni amalga oshirish maqsadida ta'lif va tadqiqotlarning mazkur axborot-resurs manbaini ishlab chiqishda Dankin Universiteti, Massachusets Texnologiya instituti va Nyu-York Davlat Universiteti (AQSh), Oksford Universiteti, Bat Universiteti va London Metropoliten Universiteti (Buyuk Britaniya), Bremerxafen Universiteti (Germaniya), Vaseda Universiteti (Yaponiya), Kemyong Universiteti (Koreya Respublikasi), Shanxay Universiteti (XXR) va boshqa yetakchi xorijiy universitetlar boy ijobjiy tajribasidan samarali foydalanildi.

Uslubiy qo'llanmani takomillashtirish masalalari

Elektron uslubiy qo'llanma o'quv yili mobaynida xalqaro va milliy iqtisodiyot tizimidagi o'zgarishlar va tendensiyalar, yangi qabul qilingan qonunlar, farmonlar va qarorlarni, xorijda va respublikada chop etilgan yangi o'quv va ilmiy adabiyotlarni, fan-teknika va texnologiya borasida erishilgan yangi yutuqlarni hisobga olgan holda muntazam takomillashtirilib boriladi.

“Internet marketing” fani o'z ichiga quyidagi vazifalarni oladi:

- internet-marketing mohiyati, asosiy prinsiplari va funksiyalarini o'rganish, internet marketingining ob'yektlari, sub'yektlari, internet marketingining tarkibiy qismlari va kategoriyalarini bajarish;
- internetda marketingning asosiy tushunchalarini ko'rib chiqish, internet do'kon orqali tovar sotishni amalda qo'llay bilish;
- internet marketing muhitini va uning tuzilishini o'rganish;
- internet-marketing kompleksini o'rganish va amalda korxonalar faoliyatida qo'llay olish;
- zamonaviy internet-marketingini O'zbekistonda rivojlantirish muammolari va yechimlarini o'rganish.

Shuningdek, “Internet marketing” fani fundamental fanlardan biri bo'lib, boshqa marketing fanlarini o'rganishda asos bo'lib xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi “O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-soni Farmoni.

**I. AMALIY MASHG'ULOTLAR UCHUN TOPSHIRIQLAR,
KEYS STADI, VAZIYATLI MASALALAR VA TESTLAR**

AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

I-MAVZU: INTERNET MARKETING ASOSLARI (4 soat)

1.1-amaliy mashg'ulot (2 soat): Internet va axborot texnologiyalari asoslari

Amaliy mashg'ulot uchun reja-topshiriq:

1. Axborot texnologiyalar va marketing.
2. Internet marketing tushunchasi, mazmuni va mohiyati.

Amaliy mashg'ulot darsida muhokama uchun savollar:

1. Axborot texnologiyalari mohiyati nimadan iborat?
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2018 yil 28 dekabrdagi 2019 yil uchun eng muhim ustivor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida axborot texnologiyalari rivojlantirish masalalarini yoriting.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldag'i "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5349 sonli Farmonini yoritib bering.
4. Kriptoaktivlar bo'yicha faoliyatini baholang.
5. Blokcheyn texnologiyalari nima.
6. Internet marketing tushunchasiga keng tavsif bering.
7. Internet marketing mazmun va mohiyati bo'yicha o'z fikr-mulohazalarингizni bildiring.
8. Korxonaning marketing tizimida Internetdan foydalanish imkoniyatlari tushuntirib bera olasizmi?
9. Tadbirkorlikda internet marketingning o'mni nimadan iborat?

Mavzuning qisqacha bayoni

Bugungi kunda butun dunyoda raqamli iqtisodiyot va u bilan bog'liq bo'lgan bir qancha samarador texnologiyalar, shu jumladan, elektron tijorat, elektron biznes va Internet-marketing hayotimizga shiddat bilan kirib kelmoqda. Huddi shuning uchun ham, davlat va jamiyat taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida, respublikamiz rahbariyati bir qancha muhim qarorlarni qabul qildi. Masalan, Prezidentimiz 2019 yil 20 noyabr kuni Toshkent shahri Mirzo Ulug'bek tumanida Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari ITparkning yangi bosqichi qurilishiga tamal toshi qo'ydi va bu munosabat bilan o'tkazilgan yig'ilishda quyidagi so'zlarni

aytdi: «Iqtisodiyotimiz barqarorligi, har bir sohaning sifati va sanaradorligi, aholiga qulayliklar yaratish axborot texnologiyalari bilan bog'liq. Shuning uchun ham bu sohada yanada keng imkoniyat, zarur infratuzilma yaratish, mutaxassislarni har tomonlama rag'batlantirish, qobiliyatli yoshlarni tarbiyalash kerak».

Texnoparkda yillik ishlab chiqarish quvvati 2020 yilda 10 million dollardan ortishi, 2025 yilga esa 100 milion dollarga yetishi ko'zda tutilgan. Loyihaning umumiy quvvati esa 150 million dollardir. Bu texnoparkda axborot texnologiyalari, moliya texnologiyalari, elektron tijorat, logistika, elektron ta'lim, biotexnologiya va boshqa bir qancha yo'nalishlardagi ilk ilmiy-amaliy loyihamalar amalga oshirilmoqda.

Internet-marketing – bu yangi mijozlarni jalb qilish va saqlashga yordam beradigan marketing vositalari kompleksidir. Ilmiy adabiyotlarda Internet-marketing tushunchasiga turli xil yondashuvlar mavjud. Ularning ba'zi bir muhimlarini tahlil qilib chiqamiz.

M.V.Akulich Internet-marketing bilan raqamli bozor tushunchalarini bitta tushuncha, o'xshash ekanligini o'z tadqiqotlarida qayd etib o'tgan. Tovar harakati kanallarini va marketing kompleksi elementlarini rejalashtirish bo'yicha Internet-marketing juda raqamli bozorga o'xshaydi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar tovar ishlab chiqarishni tashkil etish va sotish bo'yicha barcha harakatlari Internet-marketing orqali amalga oshiriladi. Raqamli iqtisodiyotning marketing bilan bog'liq masalalari Internet-marketing orqali bajariladi². Demak, raqamli iqtisodiyot sharoitida marketing tadqiqotlarini tashkil etish, iste'molchilar xatti-harakatini o'rganish, tovar, narx, sotish va siljitim siyosatini olib borish Internet-marketing texnologiyalari orqali amalga oshirilmoqda.

I.V.Alekseev Internet-marketingni foyda olish uchun universal tizimlami ishlab chiqish va jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun Internet tarmog'ida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning o'zaro ishlash tamoyillarini o'rganishga yo'naltirilgan marketingning bir qismi sifatida ko'rib chiqadi³. I.V.Alekseev fikricha Internet-marketing an'anaviy marketingni internet orqali amalga oshirilishi, marketing faoliyatini onlayn tarzda korxonada tashkil etilishidan iboratdir.

A.A.Vekshinskiy "internet-marketing" atamasi Internetning gipermedia muhitida marketingni tashkil etish nazariyasi va metodologiyasidan iboratligini ta'kidlaydi⁴.

² Акулич М.В. Интернет-маркетинг: Учебник для бакалавров / М.В.Акулич. -М.: Дашков и К, 2016. -352 с.

³ Алексеев И.В. Теоретико-методологические аспекты исследования категории «Интернет-маркетинг» // Транспортное дело России. - 2014. - №3. - С. 14-18

⁴ Векшинский А.А., Тывин Л.Ф. Интернет-маркетинг как новое направление в современной концепции маркетинга взаимодействия // Технико-технологические проблемы сервиса. - 2017. - №2. - С. 103, 135 - Economy and BusinessJournal of Economy and Business, vol. 9.

Internet - marketingning eng asosiy instrumenti (vositasi) sayt hisoblanadi. Korporativ Web-sayt – kompaniyaning virtual ofisi, hamda bir qancha funksiyalarga ega Internet tarmog‘idagi vakilidir:

- kompaniya va uning tovarlari haqida ma'lumotlar taqdim etish;
- internetda mahsulot va savdo markasini harakatlantirish;
- joriy marketing tadqiqotlarini o'tkazish;
- iste'molchilar bilan munosabatga kirishish;
- mijozlarga servis xizmat ko'rsatish va ma'lumotlar taqdim etish;
- saytdan elektron do'kon sifatida foydalanish;
- vositachilarni jalg etish va vositachilar bilan o'zaro munosabatlarni mustahkamlash.

AMALIY TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq

“Tushunchalar tahlili” jadvali asosida quyidagi tushunchalar mohiyatini tushuntiring

Tushunchalar	Sizning fikringizcha ushbu tushuncha nimani anglatadi?	Qo'shimcha ma'lumotlar
Internet		
Web sayt		
Axborot		
Internet marketing		
Axborot texnologiyalari		
Bitim		
Online bozor		
Online marketing		
Offline marketing		

2-topshiriq

Quyidagi vaziyatlarda Siz bozor munosabatlarining o'zaro bog'liq asosiy elementlarini (ehtiyoj, istak, talab, mahsulot, ayirboshtlash va bitim) qanday ishlatingizni tushuntirib bering:

- savdo avtomati orqali bir funjon qahva sotib olayotganda;
- online tovar sotib olayotganda;
- online turpaketni sotib olayotganda.

1.2-amaliy mashg'ulot (2 soat): Internet marketing tushunchasi, mazmun va mohiyati

Amaliy mashg'ulot uchun reja-topshiriq:

1. Internet marketing elektron tijoratning tarkibiy qismi sifatida.
2. O'zbekistonda internet marketingning rivojlanish shart-sharoitlari.

Amaliy mashg'ulot darsida muhokama uchun savollar:

1. Axborot texnologiyalar nima?
2. Marketingda axborot texnologiyalarining o'rni qanchalik muhim deb bilasiz?
3. Internet marketing tushunchasi haqida gapiring.
4. Internet marketingning mazmuni va mohiyati yoritib bering.
5. Internet marketing elektron tijoratning tarkibiy qismi sifatida qanday namoyon bo'ladi?
6. O'zbekistonda internet marketingning rivojlanish shart-sharoitlari qanday?

Mavzuning qisqacha bayoni

Internet-marketing elektron tijoratning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Odadta Internet-marketing internetga integratsiyalash, axborotni boshqarish, mijozlarga xizmat ko'rsatishni tashkil etish, tovar, narx, sotish va siljitim orqali amalga oshiriladi. Internetga kirishni kengaytirish tufayli elektron tijorat va Internet-marketing ommalashib ketdi. Bugungi kunda Internet-marketing har qanday korxona va tashkilotlar marketing faoliyatining ajralmas qismi hisoblanmoqda. Tadqiqotlarimizdan kelib chiqqan holda, zamonaviy marketingining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida Internet-marketingdan foydalanishning ba'zi bir yo'nalishlarini asoslab berdik (1.1-jadval).

1.1-jadval

Internet-marketingdan asosiy foydalanish yo'nalishlari⁵

Korxona marketing kompleksi	Internet-marketingdan foydalanish yo'nalishlari
Tovar	Sotuv va sotishdan keyingi xizmatni tashkil qilish. Tovarlarning qo'shimcha qiymatini yaratish. Yangi mahsulotlarni ishlab chiqish.
Narx	Moslashuvchan chegirmalar tizimini shakllantirishda ishtiroy etish.
Joy (sotish)	Internet orqali Onlayn savdo. Internet orqali to'lov.
Siljitim	Internet orqali siljitim tizimini yaratish. Internet-brending. Jamoatchilik bilan aloqalar.

⁵ Mualliflar ishlani masi.

Segmentatsiya	Maqsadli segmentlarni tanlash va "har biri alohida" tamoyili bo'yicha turli xil auditoriyalar bilan o'zaro munosabatlarni shakllantirish.
Marketing tadqiqotlari	Iste'molchilarни о'рганиш. Raqobatchilarни о'рганиш. Bozor tahlili.

Mamlakatimizda Internet-marketingni keng qo'llanilishi o'z biznesini muvaffaqiyatli amalga oshirishni rejalashtirgan korxona, tashkilot va kompaniyalar uchun ustuvor yo'naliши bo'lishi kerak. Jahonda raqamli iqtisodiyotni shakllanishi va elektron bozorning rivojlanishi O'zbekiston korxona, tashkilot va kompaniyalarida global tendensiyalarni kuzatish va o'z platformalarida Internet texnologiyalarini qo'llash imkonini beradi

Shunday qilib, hozirgi vaqtida Internet-marketingni rivojlantirishning muhim bo'lган quyidagi yo'naliшlarini aniqlashimiz mumkin:

- o'z mahsulotlari va brendlarini reklama qilish uchun video-xosting xizmatlaridan foydalanish;
- real bozor, ishlab chiqaruvchilar va distribyutorlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladigan virtual platformalarni yaratish;
- mobil tuzilmalarni elektron bozorda qayta taqsimlash;
- ijtimoiy tarmoqlardan keng foydalanilgan holda onlayn so'rovnomalar o'tkazish, ekspertlar bahosini yo'lga qo'yish.

AMALIY TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga berilayotgan e'tibor natijasida yildan yilga ushbu soha mamlakat iqtisodiyotining haqiqiy tayanchiga aylanib bormoqda. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish hisobidan qo'shimcha qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqarish hajmi oshib bormoqda. Bu esa ichki bozorda kuchli raqobat muhitini shakllanishiga olib kelmoqda. Bunda ayniqsa, savdo korxonalarini o'z tovarlarini sotishda bir qator marketing tadbirlarini amalga oshirishga majbur bo'lmoxda.

Samarqand shaharida joylashgan "Bahora" kiyim-kechak do'koniga esa 10 yildan ko'proq vaqt davomida yaxshi faoliyat yuritmoqda. Uncha katta bo'lмаган bu savdo korxonasi faoliyatining tahlili shundan dalolat beradiki, bu do'kon bekasi Diloromxon o'z mijozlari haqida qayg'uradi va ishni yetarli darajada bilimdonlik bilan olib boradi.

1. U kishi mijozlarning odatlarini va tabiatini yaxshi biladi.

2. Agar mijoz sotib oladigan kiyimini harakteristikasini ko'rganda, bu kiyim unga mos kelmasa, u holda darhol bu kiyim unga mos kelmasligi aytildi va mos kiyim tanlanishiga harakat qilinadi.

3. Agar zarurat bo'sha mijozga tayyor online buyurtmalarini unga mos qilib qaytadan bichilib, o'zgartirib beriladi. Shu sababli do'konda bichuvchi faoliyat yuritadi.

4. Do'konda tovarni bo'lib-bo'lib to'lashga ham harid qilish mumkin.

5. Do'kon xodimlariga mamlakatda o'matilgan minimal ish haqining 5-6 barobari miqdorida maosh to'lanadi. Bu esa yuqori malakali xodimlarni ishga qabul qilishga imkon yaratadi.

Shu bilan bir qatorda do'kon egasi o'zining tijorat faoliyatida bir qancha muzokaraga sabab bo'ladigan qoidalardan ham foydalanadi. Bular asosan firma faoliyati strategiyasi va taktikasini shakllantiradi.

1. Haridorni jalg etish zarur, lekin bundan ham zarurroq uning do'konga yana kelishi uchun xohish-istagini bajarishdan iboratdir.

2. Asosiy vazifa kiyim ham, moda ham emas, balki odamlar bilan muomala qila bilishdir (haridorlar bilan, tovar yetkazib beruvchilar bilan, kreditorlar bilan, boshqa savdo do'konlari bilan yoki firma xodimlari bilan).

3. Haridorga tovar emas, balki sotuvchining o'zi ham yoqishi zarur.

4. Tovarni sotib olish madaniyati, uni sotish madaniyatidan ustunroqdir.

5. O'z faoliyatini kengaytirish kerak emas, chunki bu qo'shimcha ishchi-xodimlarni talab etadi. Bu esa ko'plab muamimolar va javobgarlikni keltirib chiqaradi.

6. Do'kon juda kech paytgacha ochiq turmasligi kerak.

7. Online buyurtmalarni qabul qilish imkonini mavjudligi.

Quyidagi savollarga javob bering:

1. "Bahora" savdo do'konining bekasi Diloromxonning amaliy ish yuritish faoliyatini qanday baholaysiz?

2. Bu savdo korxonasining faoliyatidagi ijobjiy tomonlari nimalardan iborat?

3. Siz qaysi kamchiliklarga urg'u bergen bo'lardingiz va firma faoliyatida foydalanimayotgan qanday imkoniyatlar mavjud.

4. "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" Dasturidan kelib chiqib, Siz ushbu savdo do'konida qanday yangiliklarni amalga oshirgan bo'lardingiz.

TEST-TOPSHIRIQLAR:

1. Toshkent shahri Mirzo Ulug‘bek tumanida Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari IT parkning 2020 yilda ishlab chiqarish quvvati 10 million dollardan ortishi, 2025 yilga esa qancha dollarga yetishi ko‘zda tutilgan?

- a) *100 million dollar
- b) 100 ming dollar
- c) 10 million dollar
- d) 90 million dollar

2. IT parkda marketing sohasiga oid qanday loyihibar bajarilishi ko‘zda tutilgan?

- a) *logistik loyihibar.
- b) moliyaviy loyihibar.
- c) ta’limga oid loyihibar.
- d) biotexnologiyalar.

3. Axborot nima?

- a) *biron voqeа haqidagi bat afsil xabar, ma’lumot.
- b) ba’zi vaqtdagi xabarlar.
- c) firmanın ma’lumotları.
- d) ilmiy adabiyotlar.

4. Internet-marketing – bu ...

- a) Mayjud yoki potensial talabni aniqlash yo‘li bilan u yoki bu mahsulot (tovar, xizmat)ni ishlab chiqarish zaruriyatini asoslash.
- b) *Yangi mijozlarni jalb qilish va saqlashga yordam beradigan marketing vositalari kompleksidir.
- c) Korxonaning bozordagi yuqori obru-e’tibori, mashhurligini ta’minlash, bozor ulushini, sotish hajmini oshirish.
- d) Tovarlarni sotish usullarini takomillashtirish.

5. A.A.Vekshinskiy “internet-marketing” atamasi qanday izohlaydi?

- a) *Internetning gipermedia muhitida marketingni tashkil etish nazariyasи va metodologiyasidan iborat.
- b) An’anaviy marketingni internet orqali amalga oshirilishi, marketing faoliyatini onlayn tarzda korxonada tashkil etilishidan iboratdir.
- c) Foyda olish uchun universal tizimlarni ishlab chiqish va jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun Internet tarmog‘ida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning o‘zaro ishlash tamoyillarini o‘rganishga yo‘naltirilgan marketingning bir qismi.
- d) raqamli bozor tushunchalarini bitta tushuncha, o‘xshash ekanligini o‘z tadqiqotlarida qayd etiladi.

6. M.V.Akulich Internet-marketing qanday ta’rif bergan?

- a) Internetning gipermedia muhitida marketingni tashkil etish nazariyasi va metodologiyasidan iborat.
- b) An'anaviy marketingni internet orqali amalga oshirilishi, marketing faoliyatini onlayn tarzda korxonada tashkil etilishidan iboratdir.
- c) Foya olish uchun universal tizimlarni ishlab chiqish va jamiyatning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun Internet tarmog'ida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning o'zaro ishlash tamoyillarini o'rganishga yo'naltirilgan marketingning bir qismi.
- d) *Raqamli bozor tushunchalarini bitta tushuncha, o'xshash ekanligini o'z tadqiqotlarida qayd etiladi.

7. Internet - marketingning eng asosiy instrumenti nima?

- a) *sayt.
- b) modem.
- c) o'rgimchak to'ri.
- d) Marketing tizimi.

8. Korporativ web-sayt nima?

- a) korxonaning ishlab chiqarish, sotish va moliyaviy faoliyatini tartiblashtirish va rejalashtirish.
- b) *kompaniyaning virtual ofisi, hamda bir qancha funksiyalarga ega Internet tarmog'idagi vakilidir.
- c) haridorlar talabiga javob beruvchi tizim.
- d) mavjud yoki potensial talabni aniqlash yo'lli bilan u yoki bu mahsulot (tovar, xizmat)ni ishlab chiqarish zaruriyatini asoslash.

9. Elektron aloqa vositalari nimalar?

- a) printer, skaner, sichqoncha.
- b) *kompyuter, telefon, faks.
- c) aloqa, simlar.
- d) klaviatura, plotter.

10. Marketingning ob'yektlariga nimalar kiradi?

- a) zaruriyat, ehtiyoj, talab, tovar va xizmatlar.
- b) ishlab chiqaruvchilar, iste'molchilar, tovar va xizmatlar.
- c) ulgurji va chakana sotuvchilar, ehtiyoj, talab, iste'molchi.
- d) iste'molchi, ehtiyoj, talab, tovar va xizmatlar, ulgurji va chakana sotuvchilar.

2-MAVZU: ZAMONAVIY MARKETINGDA STRATEGIK VA TAKTIK REJALASHTIRISH

2.1-amaliy mashg'ulot (2 soat): Internet-marketing infratuzilmasi

Amaliy mashg'ulot uchun reja-topshiriq:

1. Internet-qurilma, TCP/IP protokoli oilasi, domen nomlari tizimi.
2. Internet xizmatlari.

Amaliy mashg'ulot darsida muhokama uchun savollar:

1. Internet provayderlarni tushuntirib bering.
2. Internet qurilmalarini aytib bering.
3. Domen nima?
4. TCP / IP protokoli oilasi haqida nimalarni bilasiz?
5. Internet xizmatlari qanday ta'riflash mumkin?
6. Internetni qurish uchun umum mantiqiy asosni tushuntirib bering?

Mavzuning qisqacha bayoni

Ushbu mavzuda javob beradigan birinchi savol Internet nima? Bu savolga ko'plab qarashlar va shunga mos ravishda javoblar mavjud. Axborot nuqtai nazaridan Internet - bu web-saytlar deb nomlangan, terabaytli turli xil ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va "butun dunyo farmog'ini" tashkili etuvchi ko'plab o'zaro aloqalar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan millionlab axborot markazlarining to'plamidir. Ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan, Internet aloqa, uzatish vositasi, ko'ngil ochish va biznes uchun yagona muhitdir. Texnik jihatdan Internet - bu o'n minglab mustaqil tarmoqlar va millionlab kompyuterlarning to'plamidir. Xo'sh, Internet nima?

1995 yil 24 oktyabrda Federal Tarmoq Kengashi tomonidan berilgan Internet ta'rifida shunday deyilgan:⁶ "Internet global protokol tizimidir, uning qismlari Internet Protokoli (IP) asosida noyob manzil maydoni orqali bir-biri bilan mantiqiy ravishda bog'langan yoki uzatishni boshqarish protokoli / Internet protokoli (TCP/IP) protokollari to'plami, ularning keyingi kengaytmalari yoki boshqa IP ga mos keladigan protokollar orqali aloqa qilish imkoniyatiga ega bo'lgan va yuqori darajadagi aloqa xizmatini ommaviy yoki xususiy ravishda taqdim etadigan, foydalanadigan yoki taqdim etadigan tizimidir".

Boshqacha qilib aytganda, Internetni bitta aloqa protokoli - TCP/IP asosida tarmoqlarning o'zaro bog'lanishi deb ta'riflash mumkin. Shunday

⁶ <https://www.cs.columbia.edu>

qilib, Internet TCP/IP protokollar oиласига асосланган. Ammo ular Internetdan marketing, elektron tijorat yoki shunchaki ikki kishi учун foydalanish учун yetarli emasmi? Albatta yo'q. Buning учун, oxir-oqibat foydalanuvchilarga eng keng qamrovli harakatlarni berадиган va qisqa vaqt ichida, o'n yil ichida, dunyo bo'yab millionlab odamlarning mashhurligi va tan olinishiga olib keladigan muhitni tashkil etадиган juda ko'p tarkibiy qismlar mavjud. Shu sababli, to'g'ridan-to'g'ri Internet-marketingning barcha tarkibiy qismlarini ko'rib chiqishga o'tish учун ushu mavzuda biz Tarmoq faoliyatining bir qator асосиy elementlarini ochib berадиган savollar to'plamini ko'rib chiqamiz.

AMALIY TOPSHIRIQLAR:

1-topshiriq:

Internet xizmatlarini ifodalovchi jihatlar		Mazmuni
Internet-provayderlar		so'rov bo'yicha ma'lumot darhol qaytarilishi bilan taysiflanadi
Internet xizmatlari		Internetdagи eng keng tarqaғan ikkinchi xizmat
Offline xizmatlar		nomlangan tashkilotlar tomonidan taqdim etиладиган Internetga foydalanuvchi
Online xizmatlar		Internet foydalanuvchilariga xizmat ko'rsatuvchi tizimlar
Telekonferensiya		o'z protokoli va mijoz dasturiga ega bo'lмаган va faqat elektron pochta orqali ishlайдиган xizmat
Pochta ro'yxatlari		guruuning асосиy xususiyati - so'rov va ma'lumot olish оrtasida vaqtinchalik tanaffusning mavjudligi
Suhbat		real vaqt rejimida matnli munozaralarga imkon berадиган Internet xizmatlarini anglatadi

Topshiriqni quyidagi tartibda bajaring:

1. Internet xizmatlarini ifodalovchi jihatlarga mos keladigan variantini ularning mazmuniga moslashtiring (streika chiziqlari orqali).
2. Har bir internet xizmatlarining mazmun-mohiyatini keng tushuntirib bering.
3. Internet xizmatlariga amaliy misollar keltiring.

2-topshiriq:

Quyida keltirilgan firmalarning faoliyati qaysi marketing konsepsiyalariga асосланганини sharhlab bering.

Birinchi firma, ovchilik, baliqchilik va turizm uchun uskunalar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Firma yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarishni bozor talablariga asoslangan holda amalga oshiradi.

Ikkinci firma, maktab-o'quv qurollari, devonxona tovarlarini bozorda talabni o'rganmagan holda, sotishning agressiv shakliga asoslanib ishlab chiqaradi.

Uchinchi firma, quruvchilik firmasi bo'lib shahardagi binolarning tashqi qismilarini qayta tiklash bilan shug'ullanadi. Ishga faqatgina shaharda ro'yxatga turadigan shaxslar qabul qilinadi.

To'rtinchi firma, mebel ishlab chiqarishi bilan shug'ullanadi. Firmaning mahsuloti arzon sifati pastroq lekin mustahkam bo'lib savdo tizimida keng tarqalgan.

Beshinchi firma, tele va videoapparatura ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Mahsulot ishlab chiqarilishi tovari doimiy ravishda takomillashtirish asosida amalga oshiriladi. Bozordagi talabga menejerlar e'tibori qaratilmagan.

2.2-amaliy mashg'ulot (2 soat): Internetda axborot xavfsizligi va to'lov tizimi

Amaliy mashg'ulot uchun reja-topshiriq:

1. Internetda axborot xavfsizligini ta'minlash.
2. Internetdagi to'lov tizimlarining turlari. Ularning ishlashining asosiy tamoyillari.

Amaliy mashg'ulot darsida muhokama uchun savollar:

1. Internetning hamma joyda tarqalishiga va undan foydalanishga qanday omillar ta'sir ko'rsatdi?
2. Ulardan qaysi biri eng muhim ta'sirga ega va nima uchun?
3. Dastlab Internetda eng keng tarqalgan xizmat elektron pochta edi. Internetning rivojlanishi eng ommabop xizmatlar qatoriga birinchi navbatda WWW xizmati, telekonferentsiyalar, chat xonalari va boshqa qatorlarni qo'shdii. Internet va uning xizmatlarining kelajakdagi rivojlanishini bashorat qilishga harakat qiling. Qaysi xizmatlar eng ommabop bo'ladi va nima uchun?
4. Zamonaviy axborot texnologiyalari ta'siri ostida Internet muhiti qanday o'zgaradi?
5. Bir necha yil ichida Internet qanday ko'rinishga ega bo'ladi?
6. O'zining butun faoliyati davomida Internetda xavfsizlikni ta'mintash muammosi va undan ham ko'proq tijorat maqsadlarida foydalanish asosiy muammolardan biri bo'lgan. Shu bilan birga, ko'plab mutaxassislar ushbu muammo xavfni ob'ektiv baholashdan ko'ra ko'proq xavfni psixologik

idrok etish bilan bog'liqligini ta'kidlaydilar. Internetni tovarlarni sotib olish va to'lash vositasi sifatida ishlatalishning keng amaliyoti va an'analarining yo'qligi ham ushbu muammoni idrok etishga katta ta'sir ko'rsatadi. Internetdan foydalanishda va u orqali xaridlarni amalga oshirishda xavfsizlik darajasini qanday baholaysiz?

7. Ushbu muammoni hal qilish uchun kompaniyalar yoki davlat idoralari qanday choralar ko'rishlari mumkin?

8. Internet to'lov tizimlarining asosiy parametrlari va xususiyatlari qaysi, birinchi navbatda ularning rivojlanish muvaffaqiyatlari va samaradorligini belgilaydi?


9. Mavzuda keltirilgan tasnifga ko'ra, amaldagi to'lov tizimlari ikki turga bo'linadi - kredit va debet. Sizningcha, qaysi tizimlarning rivojlanish istiqbollari eng katta va nima uchun?

Mavzuning qisqacha bayoni

Internetdan keng foydalanishning eng muhim shartlaridan biri u orqali amalga oshiriladigan barcha operatsiyalar uchun xavfsizlikning yetarli darajasini ta'minlash edi va qolmoqda. Bu foydalanuvchilar o'rtasida uzatiladigan ma'lumotlarga, savdo tizimlari ma'lumotlar bazalarida saqlanadigan ma'lumotlarga, moliyaviy operatsiyalarga hamroh bo'lgan ma'lumotlarga tegishlidir. Axborot xavfsizligi tushunchasi tasodifiy yoki qasddan qilingan ta'sirga qarshi axborot barqarorligi holati sifatida ta'riflanishi mumkin, uni yo'q qilish, buzish va oshkor qilishning yo'q qo'yib bo'lmaydigan xatarlari bundan mustasno, bu ma'lumot egasiga yoki foydalanuvchiga moddiy zarar yetkazishiga olib keladi. Tarmoq tashqi kirish uchun to'liq ochiq bo'lganligi sababli, ushbu usullarning roli juda muhimdir. Xavfsizlik omilining ahamiyati Internetda o'tkazilgan ko'plab tadqiqotlar bilan ham qayd etilgan.

Shifrlash

Internetda operatsiyalarni amalga oshirishda birinchi navbatda muhim ma'lumotlarning ruxsatsiz shaxslardan ishonchli tarzda yashirilishini ta'minlash kerak. Bu oddiy matnni maxsus shifrlash kalitisiz o'qib bo'lmaydigan shaklga o'tkazadigan shifrlash texnologiyalari bilan amalga oshiriladi. Ushbu texnologiyalar tufayli siz umumiyligi xavfsiz bo'lмаган Internet kanallari orqali xavfsiz aloqani tashkil qilishingiz mumkin. Har qanday shifrlash tizimi ma'lum bir metodologiyaga muvofiq ishlaydi, shu jumladan bir yoki bir nechta shifrlash algoritmlari (matematik formulalar), ushbu algoritmlar foydalanadigan ~~kalitish va heshgarish~~ tizimi (2.1-rasm).





2.1-rasm. Shifrlash sxemasi.

Shifrlash metodologiyasiga ko'ra, avval shifrlash matnni undan olish uchun shifrlash algoritmi va kaliti qo'llaniladi. Keyin shifrlangan matn manzilga o'tkaziladi, shu erda asl matnni olish uchun uni ochish uchun xuddi shu algoritm va kalit ishlataladi. Shifrlash metodologiyasi kalitlarni yaratish va ularni tarqatish tartib-qoidalarini ham o'z ichiga oladi.

Internet orqali uzatiladigan ma'lumotlarni shifrlash ularni ruxsatsiz shaxslardan himoya qilishga yordam beradi. Biroq, to'liq xavfsizlik uchun, bitimning ikkinchi tomoni u o'zini da'vo qilgan shaxs ekanligiga amin bo'lisingiz kerak. Biznesda xaridor uchun eng muhim identifikator bu ularning imzosi. Elektron tijoratda an'anaviy imzoning elektron ekvivalenti raqami imzo hisoblanadi. Uning yordami bilan siz tranzaksiya faqat ma'lum bir manba tomonidan boshlanganligini emas, balki ma'lumotlar uzatish paytida buzilmaganligini ham isbotlashingiz mumkin. Shifrlashda bo'lgani kabi, elektron imzo texnologiyasida ham shaxsiy kalit (bu holda bitimning ikkala tomoni ham bir xil kalitdan foydalaniladi) yoki ochiq kalit ishlataladi (buning uchun ochiq va yopiq kalit juftligi kerak).

AMALIY TOPSHIRIQLAR:

1-topshiriq:

“Konseptual jadval” asosida *an'anaviy* va *internet* marketing konsepsiylarini berilgan aspektlar bo'yicha tushuntirib bering.

Aspektlar	An'anaviy marketing	Internet marketing
E'tiborning asosiy ob'yekti		
Maqsad		
Marketing vositalari		
Daromadni olish manbai		

2-topshiriq:

Quyidagi kompaniyalar faoliyati qaysi marketing konsepsiyasini asosida boshqarilmoqda?

1. Kompaniya ehtiyyot qismilarni ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Kompaniya keyinchalik narxlarni pasaytirish uchun texnologiyasini takomillashtirib, ishlab chiqarish xarakatlarini kamaytiradi.

2. Kompaniya maishiy texnika tovarlarini ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi va tovarlarini muntazam sifatini oshirib boradi. Kompaniya menejerlari faqat tovar siyosatiní takomillashtirish haqida o'ylaydi, ammo uning talabi haqida o'ylamaydi.

3. Kompaniya yuqori sifatli bo'limgan arzon to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqaradi va savdo tarmoqlari orqali keng taqdim etadi.

4. Kompaniya rulonli konkilar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Kompaniya bozor talablariga asoslangan yangi modellarni ishlab chiqaradi.

5. Qurilish kompaniyasi yangi savdo markazi qurmoqda. Ishga faqatgina ushbu shaharda doimiy yashaydiganlar qabul qilinadi.

3-MAVZU. INDIVIDUAL ISTE'MOLCHILAR BILAN O'ZARO ALOQALAR

3.1-amaliy mashg'ulot: Internet aloqalari xususiyatlari va internet auditoriyasi

Amaliy mashg'ulot uchun reja-topshiriq:

1. Internetning aloqa xususiyatlari. Ularning an'anaviy ommaviy axborot vositalaridan farqlari.
2. Internet auditoriyasi, uning hajmi, asosiy marketing xususiyatlari.

Amaliy mashg'ulot darsida muhokama uchun savollar:

1. Internetning aloqa xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Ommaviy axborot vositalari deganda nimani tushunasiz?
3. Marketingni qanday funksiyalari bor?
4. Internet auditoriyasi nima?
5. Internet auditoriyasi xususiyatlarini ayta olasizmi?
6. Internet aloqa modellari haqida aytib bering?

Mavzuning qisqacha bayoni

Internetning paydo bo'lishi va uning yanada rivojlanishi reklama va aloqa vositalarining zamonaviy ko'rinishini tubdan o'zgartirdi. Internet orqali aloqaning interfaol xususiyatini, gipermehha xususiyatini va individual o'zaro aloqalarni qurish qobiliyatlarini birlashtiradi. Global kompyuter tarmog'i ham aloqaning yangi vositasi, ham daromad darajasi ancha yuqori bo'lgan millionlab potensial mijozlari bo'lgan yirik bozorga aylandi. Internetning yangi kommunikativ xususiyatlari aloqa jarayonlariga yangicha qarashni va iste'molchilarga nisbatan ilgari qo'llanilgan yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

Biroq, qanday qilib muloqot qilishni bilish yetarli emas, kim bilan muloqot qilish kerakligini bilishi kerak. Ushbu ma'lumot Internet foydalanuvchilarining sifat va miqdoriy tarkibini, ularning ehtiyojlari, istaklari, afzalliliklari, xatti-harakatlarini va boshqa ko'p narsalarni o'rganadigan tadqiqot agentliklari tomonidan taqdim etilishi mumkin.

Ammo Internetdagi aloqa jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lish va uning auditoriyasini bilish kompaniyaning muvaffaqiyatga erishishi uchun yetarli emas. Kompaniya mijozlari bilan o'zaro aloqada bo'lish uchun har kuni sinchkovlik bilan ish olib borish kerak. Ushbu ishni zamonaviy axborot texnologiyalari osonlashtiradi, ularning orasida eng katta yordamni metodologiya va uning asosida qurilgan mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish tizimlari - CRM (Customer Relationships Management) tizimlari ko'rsatishi mumkin.

Internet-aloqa modellari

Ommaviy axborot vositalarining o'z auditoriyasiga ta'siri darajasini vizual tahlil qilish uchun ularning faoliyati odatda qandaydir model ko'rinishida taqdim etiladi. Aslida zamonaviy OAVning o'z auditoriyasi bilan o'zaro ta'sirining barcha asosiy jarayonlari uning doirasiga mos keladi.



3.1-rasm. An'anaviy ommaviy axborot vositalarining aloqa jarayonlarini aks ettiruvchi model⁷

An'anaviy ommaviy axborot vositalarining kommunikatsiya modeli firma aloqa vositasi yordamida iste'molchilar guruhiga ma'lumot etkazadigan birdan ko'pga asoslangan jarayonga asoslangan. Ushbu vositani tanlashiga qarab, ma'lumot statik (matn, grafik) va / yoki dinamik (audio, video, animatsiya) shaklda taqdim etilishi mumkin. An'anaviy ommaviy axborot vositalarining iste'molchilar bilan o'zaro ta'sirida yotadigan asosiy xususiyat - bu interaktiv o'zaro ta'sirning etishmasligi.

Ushbu modeldan farqli o'laroq, Internet ikkita mutlaqo boshqacha printsipta asoslanadi. Birinchidan, Internet orqali muloqot qilishda o'zaro ta'sirlashish, unga katta hissa qo'shadigan ma'lum bir muhit orqali sodir bo'ladi.

Taqdim etilgan model aloqaning o'zaro ta'sirlashish turlarini keng qamrab oladi. Ulardan asosiyлари quyidagilar:

- foydalanuvchilar navigatsiya dasturidan foydalangan holda Internet muhiti bilan o'zaro aloqada bo'lislari va WWW tarkibini o'rganishlari mumkin;
- foydalanuvchilar o'zlar, ehtiyojlari to'g'risida ma'lumot berishlari, turli masalalarni muhokama qilishda ishtirok etishlari, o'z fikrlarini bildirishlari va hokazo;
- firmalar Internet muhiti bilan o'zaro aloqada bo'lislari mumkin, bu ular o'rtasida ham, Internetda taqdim etilgan ma'lumotlar bilan ham aloqa o'rnatishga imkon beradi;
- firmalar o'zlarining web-saytlaridan foydalangan holda yoki boshqa web-serverlarga ma'lumotlarni joylashtirish orqali Internet-muhitda o'zlar haqida ma'lumot taqdim etishlari mumkin;

⁷Internet ma'lumotlari asosida mualliflar ishlannasi.

- odamlar va korxonalar bir-biri bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilishlari mumkin, masalan, elektron pochta, yangiliklar guruhlari yoki to'g'ridan-to'g'ri IRC orqali.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, "ko'pdan ko'pgacha" aloqa modeli "birdan ko'pgacha" va "birdan bittagacha" modellarni organik ravishda o'z ichiga oladi, bu esa aloqa jarayonida qatnashayotgan firmalar va iste'molchilar uchun ham aloqa imkoniyatlarini sezilarii darajada kengaytiradi.

AMALIY TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq

Ustki tayyor kiyim-kechaklar sotadigan savdo do'koni yilning bahor-yoz oralig'ida qishki assortiment tovarlarini sotishda birmuncha qiyinchiliklarga duch keladi.

Quyidagi savollarga javob bering:

1. Marketolog quyida keltirilgan marketing strategiyalaridan qaysi birini qo'llashi kerak:
 - Remarketing.
 - Sinxromarketing.
 - Demarketing.
 - Online marketing.
 - Online savdo.
2. Siz tanlagan variant boshqalaridan nimasiga bilan farq qiladi?
3. Mahsulot sotishni rag'batlantirishga qaratilgan aniq tadbirlarni sharhlab bering.

2-topshiriq

1. Quyidagi tadbirlar qaysi marketing funksiyasi tomonidan amalga oshiriladi?

Tadbirlar	Marketing funksiyalari			
	Analitik	Ishlab chiqarish	Sotish	Boshqarish va nazorat
Korxonaning tashqi muhitini tadqiq qilish				
Kontent reklama				
Korxonaning moliyaviy holatini tahtil qilish				
Online marketingni rejalashtirish				
Online bozor tadqiqotlari				
Online bozor segmentatsiyasi				

Mahsulot/ xizmatlar tadqiqoti	:			
Internetda yangi tovarlar ishlab chiqarishni tashkil etish va sotish				
Online tovar harakatini tashkil etish				
Ehtiyojni tadqiq qilish				
Raqobatchilar tahlili				
Nazorat				
Sotishni rag'batlantirish				

3.2-amaliy mashg'ulot: Internetda mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish

Amaliy mashg'ulot uchun reja-topshiriq:

1. Internetda navigatsiya jarayonining xususiyatlari.
2. Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish.

Amaliy mashg'ulot darsida muhokama uchun savollar:

1. Internet auditoriyasini segmentatsiyalashning o'z versiyasini taklif eting.
2. Mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish metodologiyasi kompaniyalarga ularning ehtiyojlari va istaklarini tushunishning yangi darajasiga chiqishga va shu bilan ular bilan aloqalarni yanada mustahkamlashga imkon beradi. Shunga o'xshash funksional tizim yoki uning hech bo'limganda bir qismi sizning korxonangizda ishlataladimi?
3. Mijozlar bilan munosabatlarni rivojlantirish bo'yicha eng keng tarqalgan tadbirlar qanday?
4. Mayjud usullarning samaradorligini baholang va kompaniyaning mijozlar bilan o'zaro aloqalari tizimining samaradorligini oshirishi mumkin bo'lgan o'zingizning usulingizni taklif qilasizmi?

Mavzuning qisqacha bayoni

Internetda foydalanuvchi navigatsiyasi mantig'ini va Internetda samarali ishlash tamoyillarini tushunish uchun, shuningdek, uning resurslaridan tijorat faoliyatida foydalanish uchun web-saytlarning mayjud turlari va ularning bajaradigan funksiyalari to'g'risida yaxshi tushunchaga ega bo'lish kerak.


Web-saytlar bajaradigan funksiyalar asosida ularni ikkita katta guruhga bo'lish mumkin:

- ✓ navigatsiya saytlari;
- ✓ tugallangan saytlar.

Ushbu bo'linish Internet muhitida foydalanuvchi navigatsiyasining umumiy mantig'iga bog'liq. Birinchidan, foydalanuvchi kerakli resurslarni topish uchun birinchi guruh serverlaridan foydalanishi kerak va shundan keyingina ulardan foydalanishi mumkin. Agar siz ushbu holatga sayt egasining ko'zi bilan qarasangiz, unda uning saytining samarali ishlashi uchun ikkita vazifani hal qilish kerak. Birinchidan, avval siz unga tashrif buyuruvchilarni jalg qilishingiz kerak. Ushbu vazifa birinchi guruh saytlari yordamida hal qilinadi. Ikkinchidan, uning takroriy tashriflarining maksimal sonini ta'minlash talab qilinadi. Ushbu vazifa foydalanuvchilarga xizmatlar, ma'lumotlar bilan ta'minlash, ularning qiziqarli o'yin-kulgilarini ta'minlash orqali hal qilinadi - saytga tashrif buyuruvchilarning muayyan ehtiyojlarini qondirishi mumkin bo'lgan barcha narsalar.

Navigatsiya saytlari

Internet saytlari birinchi guruh bo'lib tomosha. Ularning maqsadi iste'molchilarni manzilga yo'naltirishdir. Ushbu guruhga qidiruv tizimlari, kataloglar va tashabbuskor saytlar (portallar) kiradi.



3.2-rasm. Web-sayt tasnifi⁸.

Qidiruv tizimlari

Qidiruv tizimlarning vazifasi foydalanuvchi tomonidan kiritilgan so'rovga muvofiq Internet-saytlarga havolalar berishdir. Qidiruv tizimlarning taniqli vakili - bu Alta-Vista xalqaro tizimi va Rossiyaning Yandex tizimi.

⁸ Internet ma'lumotlari asosida mualiflar ishlansasi

Qidiruv tizimlar uchta asosiy qismidan iborat:

- Qidiruv tizim - bu o'rgimchak, tirtil yoki robot (Spider, Crawler, Robot) deb ham ataladi - web-saytlarga kiramadigan, tarkibini to'liq yoki bir qismini o'qiydigan va indekslaydigan, so'ngra serverda joylashgan havolalarga amal qiladigan dastur. Qidiruv tizim muntazam ravishda, masalan, har oy saytlarga qaytadi va sahifalarini qayta indekslaydi.
- Qidiruv tizimining indekslari. Bunga qidiruv tizimi topadigan va o'qiganlarning barchasi yoki asosiy qismi kiradi. Tizim indekslari - bu ulkan ma'lumot ombori, bu erda qidiruv tizimi tomonidan tashrif buyurilgan va indekslangan barcha sahifalarning matn nusxalari saqlanadi.
Bunga misol qilib gollandskiy aviakompaniya firma KLM (www.klm.com) bilan ro'y bergan edi, KLM yuk reyslariga o'rirlarni to'g'ridan-to'g'ri sotishni boshlaganda yuqorida holat yuz berdi, biletlarni ulgurji olib pirovard iste'molchilarga sotadigan yirik vositachilarga bu albatta yoqmadni va ular KLM bilan faoliyatni davom ettirishdan bosh tortib, boshqa aviakompaniyalar bilan shartnomaga tuzishdi. Natijada, KLM elektron biznesini tugatishga va elektron strategiyani qaytadan ko'rib chiqishga majbur bo'ldi.

Ushbu holat shuni ko'rsatadiki, agar kompaniyaning an'anaviy taqsimot kanallari mavjud bo'lsa, tovarni pirovard iste'molchiga Internet tarqatish kanallari orqali yo'lga qo'yishdan oldin, barcha ijobiy va salbiy taraflarini ko'rib chiqish tavsija etiladi.

Masalan, yuqoridagi holatni hal qilish yo'llaridan biri, bozorni segmentlarga bo'lib, har bir segment uchun taqsimot kanallarini belgilash va tollarini qayta ko'rib chiqish orqali hal qilinadi. Ba'zi bir segmentlar an'anaviy taqsimot kanallari orqali, boshqalari yangi taqsimot kanali bo'lmish Internet orqali xizmat ko'rsatilishiga erishilishi mumkin.

Kutilayotgan konfliktlarni masshtabini oldin bashorat qilish murakkab masala. Shuning uchun agar ziddiyatlarga duch kelinsa, ularni yumshatish uchun mahsus strategiyalar qabul qilinishi lozim. Ushbu strategiya vujudga kelgan muammoni hal qilishi yoki vujudga kelgan vaziyatdan chiqishga yordam berishi lozim, masalan, agar u yoki bu vositachi bialn shartnomasi bekor qilinsa funksiyalarni bajarish uchun zanjirni uzlusiz ishini davom ettirish uchun yangi vositachilarni topish.

Taqsimot tizimida Internetdan foydalanishga to'g'ri yondashgan holda, kompaniya barcha mumkin bo'lgan muammolarni oldindan hal qilishga harakat qilishi kerak va asosiy natija ziddiyatlar emas, balki umumiy savdo hajmining oshishi va korxonaning yangi maqsadli iste'molchilar guruhiga ega bo'lishi haqida bo'lishi kerak.

AMALIY TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq

“BBB” texnologiyasi

B-B-B jadvali (Bilaman-Bilishni xoxlayman – Bilib oldim)


Nº	Mavzuning tayanch iboralarini	Bilaman	Bilishni xoxlayman	Bilib oldim
1	Tovar harakati			
2	Tovar tarqatish kanali			
3	To'g'ridan-to'g'ri sotish			
4	Vositachi			
5	Bir pog'onali kanal			

6	Vertikal marketing tizimi
7	Ulgurji savdo
8	Chakana savdo
9	Savdo agenti
10	Shartnomali VMT
11	Boshqariladigan VMT
12	Korporativ VMT
13	Ko'p kanalli taqsimot
14	An'anaviy taqsimot

2-topshiriq

Quyidagi keltirilgan tovarlarni qaysi turdag'i tovar tarqatish kanallari orqali iste'molchilarga yetkazish qulayroq va samarali deb hisoblaysiz? Fikringizni aniq misollar orqali izohlab bering.

1. muzqaymoq;
2. yaxna ichimliklar;
3. obinon;
4. «Darakchi», «Sug'diyona» va «Bekajon» gazetalari;
5. chinni buyumlari;
6. sartaroshlik xizmati;
7. muzlatkich va sovutgichlar;
8. yengil avtomobillar;
9. lak-bo'yoq tovarlari;
10. ho'l meva-sabzavotlar.



3-topshiriq

Quyidagi jadvalda taqsimot tizimining faoliyatiga bog'liq bo'lgan harajatlar tarkibi va miqdori bu tizimga kiruvchi oborlar sonini hisobga olgan holda berilgan.

Taqsimot tizimi tarkibidagi omborlarning optimal miqdorini aniqlang

Omborlar soni	Taqsimot tizmi harajatlari, ming so'm				
	Omborga yekazish bo'yicha	Ombordan tashish bo'yicha	Zaxiralarni saqlash va boshqarish bo'yicha	Omborlardan foydaanish bo'yicha	Taqsimot tizimini boshqarish bo'yicha
1	400	100000	600	3000	1500
2	700	8000	900	3800	1800
3	1000	4000	1100	4500	2000
4	1500	2000	1200	5100	2100
5	2000	1000	1250	5600	2200

4-topshiriq:

Samaradorlik mezoniga asosan tovar harakati kanalini tanlash bo'yicha to'g'ri qaror qabul qiling

- nolinch darajali kanal: muomala harajatlari 100 mln so'm, mahsulot sotishdan olinadigan foyda 500 mln so'm;
- birinchi darajalit kanal: muomala harajatlari 60 mln so'm, mahsulot sotishdan olinadigan foyda 30 mln so'm;
- ikkinchi darajalit kanal: muomala harajatlari 40 mln so'm, mahsulot sotishdan olinadigan foyda 120 mln so'm;

Samaradorlik mezoni bo'yicha tovar harakati kanalini tanlashda har bir kanal bo'yicha olinadigan foyda normasini hisoblang.

8-MAVZU. INTERNETDA KOMMUNIKATIV SIYOSATNI TASHKIL ETISH

8-amaliy mashg'ulot (2-soat): Internetda kommunikativ siyosatni tashkil etish

Amaliy mashg'ulot uchun reja-topshiriq:

1. Internetdag'i kommunikativ siyosat.
2. Web-sayt Internet kommunikatsiya tizimining asosi sifatida.
3. Pulli reklamalarni maqsadli auditoriyaga ega bo'lgan serverlarga joylashtirish.

Amaliy mashg'ulot darsida muhokama uchun savollar:

1. Samarali aloqa siyosatining asosi aloqa dasturi yoki strategiyasidir. Sizning korxonangizda shunday dastur bormi?
2. Unga qanday asosiy elementlar kiradi?
3. Ular orasida zamonaviy axborot texnologiyalari va Internetga tayanadigan elementlar bormi?
4. Mayjud aloqa siyosatiga qanday o'zgartirishlar kiritgan bo'lar edingiz va nega?
5. Internetda kir yuvish; mashinasining yangi modeli reklama kampaniyasi uchun aloqa dasturini yaratish reklama kompaniyasi tuzib chiqing. Internetda kompaniyaning korporativ web-saytini ochish haqidagi mulohazalariningizni bildiring
6. Sizning kompaniyangizda korporativ web-sayt bormi?
7. Agar bo'lsa, unda uni amalga oshirishning har bir bosqichi sifatini baholashga harakat qiling: saytning biznes modeli, domen nomi, Internet-provayderni tanlash, sayt dizayni va uning mazmuni, unga tashrif buyuruvchilarni jalb qilish vositalari, auditoriya bilan ishslash vositalari.

Mavzuning qisqacha bayoni

Internetda olib borilayotgan kommunikativ siyosati bu xaridorlarning chтиyojlarini qondirish maqsadida talabning barqaror va samarali shakllanishini hamda bozorga tovarlar va xizmatlarni targ'ib qilishni ta'minlaydigan, Internet-aloha vositalarining to'plamidan foydalanishga asoslangan kompaniya marketing tizimining barcha sub'ektlari bilan o'zaro aloqalarini rejalashtirish va amalga oshirish orqali foyda olishga qaratilgan faoliyat yo'nalishi.

Pirovard maqsadga qarab Internetdag'i marketing kommunikatsiyalari ikki turga bo'linishi mumkin:

- Mahsulotni ishlab chiqish, yaratish, takomillashtirish va uning bozordagi xatti-harakatlari bilan bog'liq kommunikatsiyal;
- Mahsulotni reklama qilish bilan bog'liq kommunikatsiyalar.

Tovarlarni ishlab chiqish, yaratish va takomillashtirish bilan bog'liq marketing kommunikatsiyalari asosan marketing tizimining barcha sub'ektlarining samarali o'zaro ta'sirini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, ularning maqsadi talabga javob beradigan mahsulotni yaratishdir.

Internet bilan bir qatorda Intranet va Extranet kabi tizimlar yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishda samarali o'zaro ta'sirga erishish uchun keng tarqaldi.

Intranet (Intranet) - bu Web-texnologiyalarga asoslangan axborot muhiti bo'lib, soydalanuvchilari kompaniya xodimlari hisoblanadi. Prinsipial jihatdan uni kompaniyaning ajralmas axborot infratuzilmasi, shu jumladan hujjatlarni boshqarish vositalari, korporativ axborot tizimi, ma'lumotlar bazalari va hk. Sifatida qarash mumkin.

Extranet (Extranet) - bu kompaniyaning barcha filiallarini, uning sheriklari va mijozlarini birlashtirgan targatiladigan axborot muhiti. Extranet - bu Intranetga qaraganda ancha ochiq tizim deb aytishimiz mumkin. Intranetlar va Extranetlarni yaratish uchun ishlatiladigan texnologiyalar va vositalar, asosan, Internetda ishlatiladiganlarga o'xshashligini yana bir bor ta'kidlaymiz. Asosiy farq ular birlashtirgan ishtirokchilar soniga bog'liq. Intranet - bu kompaniyaning faqat ichki axborot muhiti. Ekstranet kompaniya xodimlari bilan birgalikda o'z sheriklarini birlashtiradi. Internet global dunyo axborot tizimidir.

Ikkinci turdag'i kommunikatsiyalar, avvalambor, kompaniya uchun mavjud bo'lgan yoki bozorda mavjud bo'lgan tovarlar yoki xizmatlarni targ'ib qilishga qaratilgan. Bunday holda, maqsad potentsial xaridorlarni mahsulotni sotib olish zarurligiga ishontirish yoki mavjud xaridorlarga ikkilamchi, muntazam xaridlar qilishni eslatishdir.

Siljitch jarayoni xaridorlami xabardor qilish, ta'sir o'tkazish, ishontirish va rag'batlantirish, ularni sotib olish, sotib olish va sotish jarayoniga jalb qilish mexanizmidan foydalangan holda amalga oshiriladi. Reklama mexanizmi murakkab vositalar to'plamidan foydalangan holda ishga tushiriladi, unga quyidagilar kiradi: reklama, sotishni rag'batlantirish, jamoatechilik fikrini shakllantirish, brendlash. Mahsulotni siljitch bitta yoki ko'pincha, bir qancha marketing instrumentlari yordamida tashkil etish mumkin.

1-jadval

Internetda eng ko'p ishlatiladigan marketing kommunikatsiyalari vositalari

Reklama	Sotuvni rag'batlantirish	Direct marketing
Kompaniya web-sayti	konkurslar, o'yinlar, lotereyalar	Kompaniya web-saytida materialini chop qilish

Banner, matnli va multimedia reklamlari	Mukofotlar va sovg'alar	Internet-ommataviy axborot vositalarida, ixtisoslashgan va tematik saytlarda materiallar va yangiliklarni nashr etish
Kataloglarda saytni ro'yxatdan o'tkazish va qidiruv tizimlari tomonidan saytlarni indeksatsiyalash	Sinov uchun namonajlar, demo versiyalar	Internetda faol yoritib borilishi bilan marketing tadbirlarini olib borish
Elektron pochta orqali reklama	Kuponlar	Konferensiylarda ishtiroy etish
Pochta ssilkalarida, konferensiylar va e'lon taxtalaridagi reklama	Chegirmalar	Homiylilik

Internetning paydo bo'lishi va rivojlanishi bir qancha instrumentlar qo'shilishiga olib keldi, ularning vazifalari tovarlarni siljitim maqsadiga erishish, shuningdek Internetdan foydalanish bilan bog'liq bir nechta qo'shimcha vazifalar - bu o'z veb-sayingizni yaratish va targ'ib qilish va Internetda o'zingizning noyob imidjingizni yaratishni o'z ichiga oladi.

Kompaniyaning web-sayti odatda Internet tarmog'ida olib borilayotgan kommunikativ siyosatning markazidir. Shuning uchun uni targ'ib qilish vazifasi shu qadar muhimki, uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga butun kommunikatsiya siyosatining samaradorligiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Yaxshi rivojlangan an'anaviy brendga ega bo'llish, shuningdek, samarali onlayn aloqa siyosatini yaratish vazifasini anche yengillashtirishi mumkin, ammo, Internetda aloqa samaradorligini maksimal darajada oshirish uchun yangi brend yaratish yoki mavjud bo'lganini yanada faol qilishi kerak bo'ladi.

AMALIY TOPSHIRIQLAR

I-topshiriq

Quyidagi jadval asosida marketing kommunikatsiya vositalarining o'ziga xos xususiyatlarini sharhlab bering.

Marketing kommunikatsiya vositalari	Asosiy maqsadi	Kommunikatsiyani yetkazuvchi	Maqsadli guruh	Kommunikatsiya mazmuni
Reklama				
Jamoatchilik bilan aloqalar				
Sotishni rag'batlantirish				
Shaxsiy sotuv				

2-topshiriq

Supermarketlar tarmog'i tovarlarni siljitimiga qilingan harajatlarning tarmoq raqobatbardoshligiga ta'sirini baholashni o'z oldiga maqsadini qo'ygan. Mamlakatning 15 ta hududi bo'yicha tovarlarni siljitim harajatlari to'g'risida olingan ma'lumotlar asosiy raqobatchiga nisbatan (asosiy raqobatchi ko'rsatkichi 100) jadvalda keltirilgan.

Nº	Siljitimning nisbiy harajatlari	Nisbiy sotish hajmi
1.	95	98
2.	92	94
3.	103	110
4.	115	125
5.	77	82
6.	79	84
7.	105	112
8.	94	99
9.	85	93
10.	101	107
11.	106	114
12.	120	132
13.	118	129
14.	75	79
15.	99	105

Tovarlarni siljitimning nisbiy harajatlari va nisbiy sotish hajmi o'rtaqidagi bog'liqlik darajasini aniqlang va xulosa bering.

3-topshiriq

Sotishni rag'battantirish bo'yicha o'tkazilgan tadbirdar chakana savdo korxonasi orqali tovarlarni sotib olinganda 10% chegirmani ko'zda tutuvchi reklama e'loni (kupon) tarqatish orqali amalga oshirildi. Tadbirlar davomida 25 ming dona kupon tarqatildi. Reklama e'loni(kupon)ni taqdim etish orqali 1000 kishi savdo qildi. Bitta reklama e'loni(kupon)ning narxi 0,15 ming so'm. Sotishni rag'battantirish bo'yicha o'tkazilgan tadbirdar natijasida o'tgan oyda sotish xajmi 5000 ming dona, joriy oyda 4900 dona tovar sotilganligi, tovar narxi 12,5 ming so'm, ulgurji narxi 10 ming so'm, savdo harajatlari 10 ming so'm, doimiy harajatlar savdo harajatlarining 60% ni tashkil etganligi ma'lum bo'lsa, o'tkazilgan tadbirdarning samaradorligini baholang.

9-MAVZU. INTERNETDA REKLAMA, SAVDO VA JAMOATCHILIK BILAN ALOQALARNI RIVOJLANTIRISH

**9-amaliy mashg'ulot (2-soat): Internetda reklama, savdo va
jamoatchilik bilan aloqalarni rivojlantirish.**

Amaliy mashg'ulot uchun reja-topshiriq:

1. Internetda reklama qilish. Tarmoqdagi reklama vositalari va ulardan foydalanish usullari.
2. Internetda sotuvni rag'batlantirish usullari.
3. Internetda jamoatchilik bilan aloqalarni tashkil etishning asosiy usullari va ularning xususiyatlari.
4. Internet-brending va an'anaviy brendingdan farqi.

Amaliy mashg'ulot darsida muhokama uchun savollar:

1. Internetdagi reklama bozori hozirgi vaqtida faqat rivojlanishning boshida. Buning tasdig'i an'anaviy analogga nisbatan ancha past tezlik, shuningdek, an'anaviy reklama bozorining ko'plab etakchi futbolchilarining yo'qligi. Internetda reklama bozorining yanada rivojlanishini prognoz qilishga harakat qiling. Ushbu bozor sektorining yanada rivojlanishini qanday asosiy omillar aniqlaydi?
2. Internetdagi har bir reklama turini tavsiflang. Uning har bir turining asosiy vazifalari nimadan iborat?
3. Qanday afzalliklar va kamchiliklar mavjud?
4. Savdoni rag'batlantirish bo'yicha tadbirlar har yili Internet rivojlanishi o'z mahsulotlarini va xizmatlarini taklif etadigan kompaniyalar arsenalida tobora ko'proq uchraydi. Internetda bugungi kunda savdoni rivojlanish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning misollarini toping. Topilgan har bir misolning vazifalari va maqsadlarini baholang. Tarmoqda savdoni rag'batlantirish siyosatini takomillashtirish bo'yicha qanday takliflarni taklif qilishingiz mumkin?
5. Jamoatchilik bilan aloqalarni tashkil etish vositalaridan biri sifatida internetdan foydalanish foydasiga dalillarni keltiring.
6. Qanday hollarda u eng samarali va qaysi biri emas? Misollar keltiring.
7. Internet juda yosh, lekin allaqachon ko'plab Internet brendlari mavjud. O'zbekiston Internet sektorida qanday markalarni bilasiz?
8. O'zbekiston Internet sektoridagi markalarning o'ziga xos xususiyatlarini yoriting?

Mavzuning qisqacha bayoni

Reklama – potentsial xaridchlarni ularni sotib olish zarurligiga ishontirish maqsadida tovarlar va xizmatlarning iste'mol xususiyatlarini tijoriy targ'ib qilish. Reklama potentsial iste'molchilarni va jamoatchilikni bozorda taqdim etadigan savdo tashkilotlari va mahsulotlari bilan tanishtiradigan har qanday faoliyatni o'z ichiga oladi, ular haqida qulay tushuncha yaratadi va savdoga yordam beradi. Reklama kompaniyaning mahsulot va xizmatlarini targ'ib qilishning eng muhim vositasidir.

Reklama bugungi kunda kompaniyaning kommunikativ siyosatining eng keng tarqalgan vositalaridan biridir. Ushbu bayonot Internetda ishlatalishining tarqalishi bilan bir xil darajada amal qiladi.

Reklama maqsadlari tovar ayriboshlash hajmini oshirish, tovar, firma imidjini tarqatish yoki mustahkamlash, mahsulot bilan tanishish, mahsulotning funksiyalari va qiymati haqida ma'lumot olish, mahsulotga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, kompaniyaning web-saytiga tashrif buyuruvchilarni jaib qilish va boshqalar bo'lishi mumkin.

An'anaviy reklama vositalari bilan taqqoslaganda, Internet quyidagi xususiyatlarni yaxshi ajratib turadi:

- Internet reklama ob'yektini taqdim etishning samarali vositasidir. Buning sababi, bir tomondan, reklama qilingan obyekt haqida maksimal kerakli ma'lumotlarni taqdim etish qobiliyati, boshqa tomondan, uning atrof - muhitining multimedia tabiatini bilan foydalanuvchi uchun barcha mumkin bo'lgan ma'lumotlarni – matn, grafik, ovoz, video tasvirlardan foydalanish imkonini beradi. Bundan tashqari, tarmoqning gipermatnlı tabiatini iste'molchiga axborotni qidirish va olishni nazorat qilish imkoniyatini beradi va shu bilan uni reklama ob'ektini o'rganish jarayoniga jaib qiladi va imkon qadar yaqinlashtiradi;
- Internet interaktiv vosita bo'lib, natijada tarmoq foydalanuvchilariga passiv ta'sir ko'rsatishdan tashqari, reklama faol rol o'ynashi mumkin;
- Internet reklamachiga maqsadli auditoriyaga va muayyan foydalanuvchilarga yo'naltirilgan ta'sir ko'rsatishning samarali usulini beradi;
- zamonaviy axborot texnologiyalariga asoslangan holda, Internet reklama tadbirlari natijalarini tezkor va chuqur tahlil qilish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

Reklama vositasi sifatida Internet an'anaviy reklamalardan nafaqat uning xususiyatlari, balki qo'llaniladigan yondashuvlar bilan ham farq qiladi. Shunday qilib, reklama tashkil etishning asosiy xususiyati uning ikki bosqichli tuzilishidir.

Internetdagi reklamaning birinchi aloqasi-mashhur va mavzuli web-saytlarda joylashtirilgan yoki elektron pochta orqali yuborilgan bannerlar,

matn bloklari va boshqa ommaviy axborot vositalari ko'rinishidagi tashqi reklama. Bundan tashqari, qidiruv tizimlari, kataloglar, konferentsiyalar, pochta ro'yxatlari va boshqalardan foydalangan holda reklama bo'llishi mumkin. Tashqi reklamaning asosiy vazifasi foydalanuvchilarni kompaniyaning web-saytiga jalb qilishdir, ammo boshqa maqsadlar ham ta'qib qilinishi mumkin.

Ushbu bobda muhokama qilinadigan Internetdagি tashqi reklama uchun asosiy vositalar quyidagilardir:

- banner reklama-web - saytni reklama qilish va tashrif buyuruvchilarni jalb qilishning eng keng tarqalgan vositalaridan biri, shuningdek, tasvirni reklama qilishning yaxshi vositasi;
- web-kataloglarda saytni ro'yxatdan o'tkazish va uni qidirish mexanizmlari bilan indeksatsiya qilish web-saytga tashrif buyuruvchilarni jalb qilishning eng samarali vositalaridan biridir;
- elektron pochta, pochta ro'yxatlari, telekonferensiya xizmatlari va e'lon taxtalaridan foydalangan holda reklama;
- hamkorlik dasturlari-yangi mehmonlarni jalb qilish va Internet orqali sotish hajmini oshirishning samarali usuli;
- Internetdagи reklamaning ikkinchi (va markaziy) aloqasi-axborot va xizmatlarning asosiy qismini ifodalovchi web-sayt. Ya'ni, foydalanuvchi tashqi reklama bilan o'zaro aloqada bo'lganidan keyin olgan barcha narsalar unga joylashtirilgan.

Ushbu ikki darajali yondashuv birinchi reklama aloqasini va ikkinchisini amalga oshirishga eng ehtiyojkorlik bilan munosabatda bo'llishni talab qiladi. Shu bilan birga, ijobjiy natija olish uchun ikkala bosqich ham etarlicha yuqori bo'llishi kerak.

AMALIY TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq

Tashkilot foydasining o'sishi 1230 ming so'mni tashkil qildi. Reklama harajatlari quyidagi tartibda amalga oshirildi. Matbuotda reklamani joylashtirish 1 sm² gazeta maydoni – 198 so'm; reklama maydoni 120 sm². Televizion reklama: 1 minut efir uchun – 7500 so'm. Efir 5 kun mobaynida 4 minutdan uzatildi. Pochta reklamasi: 100 000 reklama varaqalari tayyorlanib jo'natildi: tayyorlash – 0,1 so'm/dona; jo'natish – 6 so'm/dona. Reklamaning samaradorligini aniqlang

2-topshiriq

Joriy yilning 11 apreliдан 18 apreligacha savdo firmasida reklama kompaniyasi o'tkazildi. Masalaning shartlari quyidagilar:

- reklama tadbirlarini amalga oshirilganga qadar xaqiqatda sotilgan tovarlar miqdori 140 mln soʻm;
 - aprel oyida xaqiqatda sotilgan tovarlar miqdori 460 mln soʻm;
 - savdo ustamasi - 15%;
 - reklama tadbirlarini oʼtkazish sarf-harajatlari - 2,65 mln soʻm;
 - savdo firmasida dam olish kuni 1 kun.
- Réklama tadbirlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlang.

3-topshiriq

Yangi vinolarni degustatsiyasi oʼtkazildi. Reklamaga ketgan sarf harajatlari 620000 soʻnni tashkil qildi. Vino ichimligiga savdo natsenkasi 30 foiz deb qabul qilingan. Tovar aylanishi haqida maʼlumot quyidagi jadvalda berilgan:

Davr	Kunlar	Tovar aylanishi ming soʻm	Oʼrtacha yillik oborot ming soʻm	foiz
Reklama oʼtkazgunga qadar	5	1305400	261080	100
Reklama oʼtkazilgandan soʼng	10	6673800	667380	225,6

Reklamaning iqtisodiy samaradorligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$I_r = \frac{T \times P \times D}{N} \times 100 = S$$

I_r – reklamaning iqtisodiy samaradorligi, soʻm;

T – reklama oʼtkazgunga qadar oʼrtacha tovar aylanishi, soʻm;

P – oʼrtacha tovar aylanishining oʼsishi, %;

D – reklama oʼtkazgunga qadar va reklama oʼtkazilgandan soʼng tovar aylanishi kunlar hisobida;

N – savdo natsenkasi, %;

S – reklamaga qilingan sarf-harajatlari, soʻm.

Reklamani iqtisodiy samaradorligini hisoblang.

**II. «INTERNET MARKETING»
fanidan
MUSTAQIL MASHG'ULOTLAR VA ISHLAR**

I-MAVZU: INTERNET MARKETING ASOSLARI (4 soat)

I-mustaqlil ish mavzusi: Internet-marketingda narx siyosati

MUSTAQIL TAYYORGARLIK UCHUN TOPSHIRIQLAR:

Topshiriq 1. Marketingning asosiy maqsadi – iste'molchi ehtiyojlarini maksimal qondirishdan iborat. Samarqand shaharida joylashgan savdo, restoran va mehmonxona korxonalarining bir nechtafiga tashrif buyuring. Ularning faoliyatini tahlil qiling va ular tomonidan bu maqsadga erishish uchun qanday internet marketing tadbirlarini amalga oshirayotganligini aniqlang.

Ish mazmuni: Samarqand shaharidagi savdo, restoran, mehmonxona va boshqa xizmat ko'rsatish korxonalariga tashrif buyurib, ularning internet marketing faoliyatini o'rGANISH.

AMALIY MASLAHATLAR VA TAVSIYALAR

Talabalar internet marketing tushunchasi, mazmun-mohiyatini birinchi darsdan to'liq tushuna olmaydi. Chunki, internet marketingini mazmun-mohiyati uning tamoyillari va funksiyalarini, maqsad va vazifalarini bilish orqali yanada oydinlashadi. Internet marketingini maqsadlarini amaliy jihatdan bilish uchun talabalar Samarqand shaharida joylashgan savdo, restoran va mehmonxona, shuningdek talabaning o'z imkoniyati va qiziqishlaridan kelib chiqib boshqa korxonalarning bir nechtafiga tashrif buyuradi. Ular o'z haridorlarining ehtiyojini qondirish uchun faoliyatida qanday marketing tadbirlarini qo'llayotganligini aniqlaydi va reyting to'plash uchun mustaqil ish tayyorlaydi.

Mustaqil ish talabanining o'rgangan chakana savdo, restoran yoki mehmonxona faoliyatini aks ettirgan aniq dalil va sharhlardan iborat bo'lishi kerak. Bozor sub'yektlarining faoliyatida yaqqol ko'zga tashlanadigan marketing tadbirlari, marketing dastaklari qanchalik talabalar tomonidan aniqlanganligi, marketing faoliyatining mazmun-mohiyatini tushunishga ko'maklashadi.

2-mustaqlil ish mavzusi: Internet-marketingda sotuvni rag'batlantirish

MUSTAQIL TAYYORGARLIK UCHUN TOPSHIRIQLAR:

Internet marketingda sotuvni rag'batlantirishga to'la amal qilinadigan Samarqand shaharida joylashgan mehmonxona korxonalaridan biri haqida yozma ma'lumot tayyorlang. U real dalillar va sharhlardan iborat bo'lishi kerak.

Ish mazmuni: Samarqand shaharidagi mehmonxona korxonalaridan birining faoliyatini o'rganib, uning faoliyati qaysi internet marketingda sotuvni rag'batlantirishga asoslanganligini aniqlash.

3-mustaqil ish mavzusi: Zamonaviy marketingda strategik va taktik rejalashtirish

MUSTAQIL TAYYORGARLIK UCHUN TOPSHIRIQLAR:

Xo'randa sifatida restoranga kirib, siz uning internet marketing texnologiyasini faoliyatida qo'llashini qanday bilasiz? Bu haqida ESSE yozing.

Ish mazmuni: Samarqand shaharida joylashgan restoranlarning biriga mijoz sifatida tashrif buyurib, uning faoliyatini ko'zatib, servis darajasi, mijozlar bilan ishlash holati, umuman marketingni qaysi strategiyasiga mos keladigan faoliyatni amalga oshirayotganligi haqida yozma esse tayyorlaydi.

AMALIY MASLAHATLAR VA TAVSIYALAR

Har bir o'rganilayotgan ob'yektni o'z mijozlari bilan ishlash tartibi, mijozlar uchun qanday aniq marketing tadbirlarini amalga oshirayotganini o'rganish lozim. Har bir tadbirga keng tavsif berish maqsadga muvofiqdir.

4-mustaqil ish mavzusi: Individual iste'molchilar bilan o'zaro aloqalar

MUSTAQIL TAYYORGARLIK UCHUN TOPSHIRIQLAR:

Topshiriq. Individual iste'molchilar bilan ishlashni sanoat, savdo, turizm, mehmonxona, restoran va sug'urta kompaniyalarida qo'llanilishini o'rganish.

Ish mazmuni: Individual iste'molchilar bilan ishlashni turli faoliyat sohalari va yo'nalishlarida qo'llanilishini o'rganish.

AMALIY MASLAHATLAR VA TAVSIYALAR

Talabalar internet marketingning tamoyillari va funksiyalarini amaliy jihatdan qo'llanilishini o'rganish uchun nazariy materiallarni chuqur o'zlashtirishlari lozim. Bundan tashqari tavsiya etilgan adabiyotlarni mustaqil o'rganib chiqishlari maqsadga muvofiq. Shuningdek individual iste'molchilar bilan ishlashni turli faoliyat sohalari va yo'nalishlari faoliyatini taqqoslab, aniq misollar asosida farqni mustaqil anglashi ko'zda tutilgan.

5-mustaqlil ish mavzusi: Internetda marketing tadqiqotlarini tashkil etish

MUSTAQIL TAYYORGARLIK UCHUN TOPSHIRIQLAR:

Topshiriq. Qaxvaxona (kafe) xizmatlariga bo'lgan talabni baholash maqsadiqa o'tkaziladigan marketing tadqiqotlarining anketasini tuzing. Mazkur anketada bozor hajmi (sig'imi) ni, tarkibi(strukturasi)ni, kafe xizmatlarini harid qilishga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashni nazarda tuting.

Ishning mazmuni: Birlamchi axborot yig'ishning universal bo'lgan so'rov usulining vositasi anketa tuzish texnologiyasini o'rghanadi. Qaxvaxona (kafe) xizmatlariga bo'lgan talabni baholash bo'yicha anketa tuzish lozim.

AMALIY MASLAHATLAR VA TAVSIYALAR

Talabalar birinchi topshiriqni bajarishlari uchun kuzatish usulining mazmun-mohiyatini nazariy jihatdan to'liq o'rghanishi lozim. Shundan so'ng kuzatish usulining qo'llash jarayonining ketma-ketligini ishlab chiqari.

Ikkinchi topshiriqda har bir talaba so'rov usulini qo'llashda anketa tuzish texnologiyasini o'rghanadi. Topshiriqni bajarish uchun tuziladigan anketada qaxvaxonaning bozor hajmi, tarkibi va qaxva sotib olishga ta'sir qiluvchi omillarni olib beradigan savollardan iborat anketa tuzishi kerak.

6-mustaqlil ish mavzusi: Internetda tovar siyosati va xizmatlari bozori

MUSTAQIL TAYYORGARLIK UCHUN TOPSHIRIQLAR:

Topshiriq 1. Internet savdo korxonalarining tovar siyosatini o'rghanish.

T – sxema

Internet savdo korxonalarida tovar siyosati shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari? Fikrlaringizning mazmunini belgilang. Tovarlarning turlari va assortimenti. Ularning XX asr boshlariga nisbatan farqlarini yoritib bering.

XX asr boshlarida	XXI asr boshlarida

Ishning mazmuni. Tovar siyosatini shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish maqsadida internetda savdo korxonalarini XX asrdagi va XIX asrdagi tovar siyosatini o'zgarishlari aniqlanadi. Asosiy o'zgarishlarga nima sabab bo'lganligi bo'yicha talabalar tomonidan fikr-mulohazalar yuritiladi.

AMALIY MASLAHATLAR VA TAVSIYALAR

Talabalar o'zlariga tanish bo'lgan, qiziqishi bo'lgan jahonga mashhur internet savdo korxonalaridan birini tanlaydi. Ma'lumotlarni internet, jurnal, maqolalar orqali topib, korxonaning tovar siyosatini shakllanishini o'rganadi. O'tgan asrdagi tovar siyosati bilan hozirgi tovar siyosatini shakllanishiga qaysi omillar ta'sir ko'rsatayotganligi o'rganiladi.

FSMU texnologiyasi yordamida "T.Levitt tomonidan 1965 yilda ta'riflangan tovar hayotiy davri konsepsiysi"ga oid savolini yo'naltiruvchi uslubiy tavsiyalar asosida yechish:

Yo'naltiruvchi uslubiy tavsiyalar:

Savol: "T.Levitt tomonidan 1965 yilda ta'riflangan tovar hayotiy davri konsepsiysiga ko'ra abadiy tovar yo'q ekan. Ertami kech har qanday tovar bozordan chiqib ketadi. Men ushbu fikrga qo'shilmayman, chunki abadiy tovarlar mayjud. Masalan, Coca-Cola"

(F) Fikringizni bayon eting	
(S) Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating	
(M) Ko'rsatgan sababingizni isbotlovchi dalil keltiring	
(U) Fikringizni umumlashtiring	

AMALIY MASLAHATLAR VA TAVSIYALAR

Yuqoridagi fikrga nisbatan talaba o'z fikrini bayon qilish kerak. Fikriga mos keladigan sabab va sababni isbotlovchi dalil keltirishi lozim. Talaba qarshi fikr bayon qilganda ham sabab va sababni isbotlovchi dalil keltirishi lozim.

7-mustaqlilish mavzusi: Narx siyosati va internet

MUSTAQIL TAYYORGARLIK UCHUN TOPSHIRIQLAR:
Narx belgilashning «Zararsizlik nuqtasini» topish

Samarqand shaharidagi “Meva-konverva” qo’shma korxonasi meva povidlosi ishlab chiqaradi.

Bozorda bir banka (povidloning sof massasi 400 g) mahsulotning bahosi – 2000 so’m. Kalkulyatsiya bo'yicha mahsulot donasiga o’zgaruvchan harajatlar – 600 so’m. Korxonaning doimiy harajatlari 200000 so’m.

1. Narx belgilashning «Zararsizlik nuqtasi»ni aniqlang.
2. “Meva-konserva” qo’shma korxonasi 500000 so’m miqdorida foyda olmoqchi. Korxona buning uchun qancha dona mahsulot ishlab chiqarishi kerak?
3. Bozor bu narx bo'yicha faqat 3000 banka mahsulotni qabul qilishi mumkin.

Siz quyidagi fikrlardan qaysi birini qo’llab quvvatlaysiz?

- ✓ mazkur mahsulot ishlab chiqarishni to’xtatish?
- ✓ bozor ko’taradigan darajadagi mahsulotni ishlab chiqarish? Bu holda foyda qanchani tashkil etadi?

AMALIY MASLAHATLAR VA TAVSIYALAR

Ushbu masala hisob-kitob qilinib, narx belgilashning zararsizlik nuqtasi aniqlanadi. Masalada keltirilgan mahsulotni ishlab chiqarishni to’xtatish yoki ishlab chiqarishni davom ettirgan holda narxini belgilash masafasi yechifadi.

MUSTAQIL TAYYORGARLIK UCHUN TOPSHIRIQLAR:

Korxona O’zbekistonga Latviyadan aksiz solig’iga tortiluvchi import tovarni kiritdi. Tavarning bojxona qiymati 8000 AQSH dollarni tashkil qiladi. tovari O’zbekistonga kiritishda 2% poshlina, 0,2% bojxona yig’imi, 30% aksiz to’lovi to’lanadi.

Agarda tovari O’zbekistonga kiritish paytida Markaziy bank kursi bo'yicha bir AQSH dolları 2100 so’m bo’lsa, jami to’lovlar qiymatini aniqlang.

AMALIY MASLAHATLAR VA TAVSIYALAR

Ushbu masalani yechish uchun ketma-ket bojxona qiymati, boj yig’imi, davlat boji, aksiz yig’imi, QQS hisoblanadi. Oxirida umumiy to’lov summasi aniqlanadi.

8-mustaqil ish mavzusi: Taqsimot siyosati va internet

MUSTAQIL TAYYORGARLIK UCHUN TOPSHIRIQLAR:

Topshiriq. Franchayzing – tadbirkorlikning hozirgi zamон shakllaridan biridir.

Savollarga javob bering:

1. «Franchayzing» atamasi nimani anglatadi?
2. Firma franchayzingdan foydalanganda nima hisobiga tovar aylanmasi ortadi va bozorda mustahkam holatni egallaydi?
3. Nima uchun franchayzingda firmani rivojlantirishga sarf bo'ladigan harajatlar, franchayzingdan foydalanmagandagi harajatlarga qaraganda kam bo'ladi?
4. Nima uchun franchayzing arendasida boshqaruv ishlari hajmi kamayib, ma'muriy xodimlarning qisqartirilishiga sabab bo'ladi?
5. Franchayzingning boshqa ijobiy tomonlarini sanab bering va mayjud kamchiliklarini ko'rsating?

Topshiriq – 1. Firma tomonidan sizga changyutgich, elektr pech kabi tovarlarni sotishga topshiriq berilgan. Ushbu mahsulotlarni sotishda qanday tovar tarqatish kanallaridan foydalanish mumkin? Ularning har birining yutuq va nuqsonlarini aytib bering.

AMALIY MASLAHATLAR VA TAVSIYALAR

Birinchi topshiriqda franchayzing tushunchasini talabalar mustaqil ravishda o'rganadi. Tovar sotishni tashkil etishda franchayzingni o'rni, ahamiyati, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishdagi roli atroficha o'rganiilib, berilgan savollarga javob topiladi.

Talabalar mustaqil ravishda o'zları mavzuning qay darajada o'zlashtirganliklarini ushu savolga javob yozish orqali namoyon qiladi. Talabalar yuqorida berilgan tovarlarni sotish uchun qaysi tovar tarqatish kanalidan foydalanishini ko'rsatadi. Tanlagan kanalini samaradorligini asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha sharhlab beradi.

9-mustaqil ish mavzusi: Internetda kommunikativ siyosatni tashkil etish

MUSTAQIL TAYYORGARLIK UCHUN TOPSHIRIQLAR:

Topshiriq: Sifatli, qiymati yuqori bo'lgan sovutgichlar ishlab chiqaruvchi korxona raqobatchilardan uzib ketish va iste'molchilarni jalb qilish uchun ba'zi qimmatbaho komponentlarni arzonroq detallarga almashtirish evaziga mahsulot narxini pasaytiradi. Korxonaning marketologlari narxning pasayishiga alohida e'tibor berib, bunda mahsulot ishlab chiqarishda sodir bo'lgan farqlar to'g'risida xabardor qilmagan holda faol marketing kommunikatsiyalarini (reklama, PR, sotishni rag'batlantirish) amalga oshirmoqda. Ishlab chiqaruvchining bunday xattiharakatlarini etikaga muvofiq keladi deb o'ylaysizmi? Marketing

kommunikatsiyalari shu tartibda ketishiga rozimisiz? Marketing kommunikatsiyalarini to'g'ri va ishonchli yo'nalishini belgilab bering.

AMALIY MASLAHATLAR VA TAVSIYALAR

Talabalar yuqoridaqizi vaziyatdan kelib chiqib sovutgichlar ishlab chiqarayotgan korxonaning aniq tovarlarini siljitimlarida marketing kommunikatsiyalaridan qanday foydalanish yo'llarini ko'rsatib berishlari kerak. Ishlab chiqarishdagi o'zgarishlar va narxning pasayish sabablarini marketing kommunikatsiyalarida qanday qilib ko'rsatish kerakligi muhim vazifa hisoblanadi.

10-mustaql ish mavzusi: Internetda reklama, sotuvni ragbatlantirish va jamoatchilik bilan aloqalar

MUSTAQIL TAYYORGARLIK UCHUN TOPSHIRIQLAR:

Topshiriq. Samarqand viloyati va respublika ahamiyatiga ega bo'lgan gazeta va jurnallardan bir nechtasini oling. Ulardagi hamma reklama murojaatlarni aniqlang (iloji bo'lsa, kesib oling) va ulardan soni va hajmiga ko'ra qaysi ulushi axborot, ishontiruvchi, eslatuvchi reklamaga taalluqli ekanligani aniqlang.

Topshiriq. Samarqand viloyat telekanali, O'zbekiston, Yoshlar, Sport va boshqa telekanallarda ayni vaqtida berilayotgan televizion rolikklardan ikkita va samarasiz bo'lgan rolikklardan ham ikkitasini tanlab olishga harakat qiling. Endi esa samarali roliklar nimasi bilan ustun turishini va samarasiz roliklar nimasi bilan ulardan orqada qolishini isbotlab bering. Iloji boricha, samarasiz rolikni tuzatish bo'yicha o'z variantingizni keltiring.

AMALIY MASLAHATLAR VA TAVSIYALAR

Talabalar matbuot va telereklamalarda reklama matni va roliklarini tuzishni o'rghanadi. Mustaqil ravishda reklama matni va roliklarini baholaydi va kamchiliklarni topib, tuzatishga harakat qiladi.

11-mustaql ish mavzusi: Internet muhitida xalqaro marketing konsepsiysi va multimedia texnologiyalari

MUSTAQIL TAYYORGARLIK UCHUN TOPSHIRIQLAR:

Topshiriq 1. 1. Korxona spiritli ichimliklar ishlab chiqarishni va internet orqali savdoni yo'lga qo'yishni rejalashtirmoqda. Makro muhitning qaysi omillarini hisobga olishi kerak?

2. Tadbirkor restoran ochishni va online reklamani rejalashtirmoqda. Makro muhitning qaysi omillarini hisobga olishi kerak?

Ish mazmuni: Savollarga talabalar mustaqil nazariy o'zlashtirgan bilimlari asosida javob yozishadi.

Topshiriq 2. Quyidagi omillar qaysi marketing muhiti hisoblanadi?

Omillar	Muhit turi		
	Ichki muhit	Mikro tashqi marketing muhiti	Makro tashqi marketing muhiti
O'xshash tovarlar ishlab chiqaruvchilar			
Yashash tarzi va qadriyatlar			
Isste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun			
Tug'ilish darajasi			
Personalning malakasi			
Qonunchilik va me'yoriy hujjatlar			
Uy xo'jaligi harajatlari tarkibi			
Rahbarning shaxsiy fazilatlari			
Transport kompaniyalari			
Buxgalteriya			
Xalqaro migratsiya			
Yangi texnologiyalarni qo'llanilishi			
Atrof muhitni ifloslanishi			
Marketing agentligi			
Aholining o'rtacha oylik pensiyasi			
Reklama agentliklari			
Ombor			
Inflyatsiya			
Distribyutor			
Bank			

Ish mazmuni: Marketing muhitiga ta'sir qiluvchi omillarni jadval asosida turini aniqlaydi.

AMALIY MASLAHATLAR VA TAVSIYALAR

Talabalar marketing muhiti va unga ta'sir qiluvchi omillarni tasniflay olishi kerak. Buning uchun jadvalda keltirilgan omillarni marketing muhiti turiga qarab ajratib chiqadi. Muhitga ta'sir qiluvchi omillar ichki va tashqi

muhit omillariga ajratiladi. Ichki muhitga ta'sir qiluvchi omillarning tavsifi keltiriladi. Korxona faoliyatiga qanday ta'sir qilayotganligi baholanadi.

Xuddi shunday tashqi muhit omillari ham tahlil qilinadi. Har bir omilning tavsifi yoritib beriladi. Korxona faoliyatiga ta'siri sharhlanadi.


Birinchi topshiriqda talabalar turli biznes faoliyati bilan shug'ullanishda marketing muhiti omillarini hisobga olishni o'rghanadi. Har bir biznes faoliyatiga ta'sir qiluvchi o'ziga xos marketing muhiti omillarini aniqlaydi.

12-mustaqlil ish mavzusi: Mamlakatimizda korxonalar eksport safohiyatini rivojlantirish tadbirlari

MUSTAQIL TAYYORGARLIK UCHUN TOPSHIRIQLAR:

Venn diagrammasi

Topshiriq. Strategik va taktik rejalashtirishni farqini aniqlang.



Ishning mazmuni. Venn diagrammasi yordamida strategik va taktik rejalashtirishning farqini aniqlaydi.

13-mustaqlil ish mavzusi: Marketingni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari

MUSTAQIL TAYYORGARLIK UCHUN TOPSHIRIQLAR:

Topshiriq. Firma yangi mahsulot ustida ish olib borayotgan bo'lib, uni kelgusi yildan boshlab ishlab chiqarishni rejalashtirmoqda. Bozorni, firmaning ishlab chiqarish va moliyaviy salohiyatlarini tadqiq qilish shuni ko'rsatadiki, mahsulot birligining tannarxi 78 dollardan yuqori bo'ladi

bo'lsa, bu holda mahsulotni ishlab chiqarish uchun fermaning o'z ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq emas; mahsulot tannarxi 72-78 dollar atrofida bo'lsa, mahsulotni tajriba sifatida ishlab chiqarish mo'ljallangan; mahsulot tannarxi 68 dollardan past bo'ladigan bo'lsa, uni to'liq ishlab chiqarishga kiritish mumkin. Kelgusidagi ishlab chiqarish harajatlarini eng to'liq aniqlash maqsadida 6 ta mustaqil ekspert tadqiqot o'tkazdi hamda ishlab chiqarish rejalashtirilayotgan mahsulot birligi tannarxini quyidagicha baholadi: 74, 72, 89, 66, 71, 78 doll.

Topshiriq:

- a) prognoz qilinayotgan ekspert baholar ketma-ketligini ko'rib chiqishning taqsimot qonuniyatlariga bo'y sunishini asoslab bering;
- b) qabul qilinishi mumkin bo'lgan qarorlarning har bir variantida erishish mumkin bo'lgan muvaffaqiyatni hisoblab chiqing;
- c) mahsulot chiqarishni tezlatishga imkon berishi mumkin bo'lgan marketing tadqiqotlarini tashkil etish bo'yicha marketing tadbirlarini taklif eting.

AMALIY MASLAHATLAR VA TAVSIYALAR

Talabalar shuni bilishi kerakki! Nafaqat bozor kon'yunkturasi, balki talab kon'yunkturasi, narx kon'yunkturasi ham o'r ganiladi hamda prognoz qilinadi. Ushbu masalada narx kon'yunkturasi haqida gap bormoqda. Masalani yechishda ehtimoliy-statistika usulidan foydalanish tavsiya qilinadi.

14-amaliy mashg'ulot: Xalqaro baho shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari

MUSTAQIL TAYVORGARLIK UCHUN TOPSHIRIQLAR:

Topshiriq. Ushbu topshiriqda "Muammo" texnologiyasi asosida iste'mol tovarlari bozorida maqsadli bozorni tanlash muammolarini yechish yo'llari keltirilgan.

"Iste'mol tovarlari bozorida maqsadli bozorni tanlash muammolarini"

Muammoning turi	Muammoni kelib chiqish sabablari	Muammoni yechish yo'llari va Sizning taklifstaringiz
Maqsadli bozor istiqbolini aniqlash		
Bozor sig' imini aniqlash		
Bozor ulushini oshirish		
Bozor nishasi (uyachasi)ni egallash		

Jozibali bozorni tanlash		
Bozorni segmentlash belgi va mezonlari aniqlash		

Ishning mazmuni. Iste'mol tovarlari bozorida maqsadli bozorni tanlashda mavjud bo'lgan muammolarni aniqlash va usarni yechish bo'yicha talabalar o'z takliflarini beradi. Iste'mol tovarlari bozorini segmentlash va maqsadli segmentlarni tanlashdagi muammolarni ko'rsatib o'tadi.

AMALIY MASLAHATLAR VA TAVSIYALAR

Ushbu usul orqali talabalar maqsadli bozorni tanlash mavzusidan kelib chiqqan turli muammoli masala yoki vaziyatlarning yechimini to'g'ri topishtariga o'rgatish, ularda muammoning mohiyatini aniqlash bo'yicha malakalarni shakilantirish, muammoni yechishning ba'zi usullari bilan tanishtirish va muammoni yechishda mos uslublarni to'g'ri tanlashga o'rgatish, muammoni kelib chiqish sabablarini va muammoni yechishdagi xatti-harakatlarni to'g'ri aniqlashga o'rgatish. Iste'mol tovarlari bozorini segmentlash va maqsadli segmentlarni tanlab olishdagi muammolarni aniqlaydi va ularni yechish bo'yicha o'z takliflarini beradi.

III. INTERNET MARKETING FANIDAN MUSTAQIL ISH MAVZULARI

1-mustaqil ish mavzusi: Internet savdo korxonada narx siyosatini shakllantirish.

2-mustaqil ish mavzusi: Xizmat ko'rsatish korxonalarini rivojlantirish bo'yicha internet marketing strategiyasini ishlab chiqish.

3-mustaqil ish mavzusi: Internetda yangi tovarlar uchun narx strategiyasini ishlab chiqish.

4-mustaqil ish mavzusi: Korxonada marketing rejasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish.

5-mustaqil ish mavzusi: Tovar xom-ashyo birjasida marketing faoliyatini tashkil etish.

6-mustaqil ish mavzusi: Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonada marketing faoliyati samaradorligini baholash.

7-mustaqil ish mavzusi: Ulgurji savdoni rivojlantirishda internet marketing tamoyillaridan foydalanish.

8-mustaqil ish mavzusi: Marketing strategiyalarining shakllanishi.

9-mustaqil ish mavzusi: Bozor raqobati sharoitida korxonalarda internet marketing faoliyatini boshqarish.

10-mustaqil ish mavzusi: Korxonada internet tizimi orqali savdosini tashkil etish bo'yicha marketing strategiyasini ishlab chiqish.

11-mustaqil ish mavzusi: Firmanın raqobat taktikasi va strategiyasini shakllantirish.

12-mustaqil ish mavzusi: Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va tarkibiy o'zgartirish sharoitida korxonalar tashqi iqtisodiy faoliyatida marketing elementlaridan foydalanish.

13-mustaqil ish mavzusi: Bozor raqobati sharoitida korxonada marketing faoliyatini rejalashtirish.

14-mustaqil ish mavzusi: Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonada reklama faoliyati samaradorligini oshirish.

15-mustaqil ish mavzusi: Raqobat muhitida korxonani rivojlantirish bo'yicha marketing strategiyasini ishlab chiqish.

16-mustaqil ish mavzusi: Korxonaning internet marketing faoliyatini tahlil etish.

17-mustaqil ish mavzusi: Korxonada internet marketing faoliyatini tashkil etish.

18-mustaqil ish mavzusi: Banklar faoliyatida internet marketing xizmatini tashkil etish.

19- mustaqil ish mavzusi: Firmanın reklama tadbirlari tizimini ishlab chiqish.

- 20-mustaqlil ish mavzusi:** Marketing xizmatini tashkil etish.
- 21-mustaqlil ish mavzusi:** Shaxsiy sotuvning mazmuni va mohiyati.
